

QUYONLARNING ORQA OYOQLARIDA VENA OQIMI QIYINLASHTIRILGANDA QAYTA TIKLANISH JARAYONI.

Xidirov Ziyadulla Erkinovich assistent

Odam anatomiyasi kafedrası

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,

Samarqand, O'zbekiston

Резюме: Maqolada qon aylanishining pasayishi natijasida quyonning tos oyoqlarining venoz to'rlarining qayta tiklanish jarayoni o'rganilgan. Tajribada quyonlarda orqa oyoqlarida venoz qon aylanishining pasayishi natijasida operatsiya qilingan venoz to'rlarining sezilarli darajada qayta tiklanishi sodir bo'ladi. Bu mushaklardagi aylanma venoz yo'llarining shakllanishida va to'g'ridan-to'g'ri anastomozlarning rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: quyon, venoz tomir, arterial to'shak, venoz to'shak, son, venografiya, anatomik periprovka.

ПЕРЕСТРОЙКА ВЕНОЗНОГО РУСЛА ТАЗОВЫХ КОНЕЧНОСТЕЙ КРОЛИКА ПРИ СОЗДАНИИ РЕДУЦИРОВАННОГО КРОВООБРАЩЕНИЯ

Хидиров Зиядулла Эркинович Ассистент

кафедры анатомии человека

Самаркандского государственного медицинского университета,

Самарканд, Узбекистан

Резюме: В статье изучены перестройка венозного русла тазовых конечностей кролика при создании редуцированного кровообращения. При создании редуцированного кровообращения происходит значительная перестройка венозного русла оперированной конечности, выражающаяся в формировании как окольных мышечных путей, так и в развитии прямых анастомозов.

Ключевые слова: кролик, венозный сосуд, артериальное русло, венозное русло, бедро, венаграфия, анатомического препарирования.

RECONSTRUCTION OF THE VENOUS SYSTEM OF THE RABBIT'S PELVIC LIMBS UNDER CONDITIONS OF REDUCED BLOOD CIRCULATION

Khidirov Ziyadulla Erkinovich, Assistant

Department of Human Anatomy

Samarkand State Medical University,

Samarkand, Uzbekistan

Abstract: The article examines the reconstruction of the venous system of the rabbit's pelvic limbs under conditions of reduced blood circulation. When reduced blood circulation is induced, significant reconstruction of the venous system of the operated limb occurs, manifested by the formation of both collateral muscular pathways and the development of direct anastomoses.

Keywords: rabbit, venous vessel, arterial system, venous system, femur, venography, anatomical dissection.

Kirish. Ko`plab mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotchilarning ishlari natijalarida ushbu jarrohlik aralashuvi paytida arterial yo'llarning qayta tuzilish dinamikasi o`rganilgan [1,2,3], ammo venoz yo'llarning qayta tuzilishi olimlarning e'tiborini kam jalb qilgan [4,5,6,7]. Shu munosabat bilan, biz kamaytirilgan qon aylanishi sharoitida venoz yo'llarning holatini o`rganishga e'tibor qaratdik.

Tadqiqot maqsadi. Eksperimentda quyonlarning orqa oyoqlarida venoz yo'llarning kamaytirilgan qon aylanishi sharoitida qayta tiklanishni o`rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Eksperiment 32 ta har ikki jinsdagi, vazni 2–2,5 kg bo`lgan quyonlarda o`tkazildi. Quyonlarning orqa o`ng oyoqlarida son, quymuch va sonning chuqur vena qon tomirlari, shuningdek, son arteriyasi chuqur

tarmog'idan yuqorida son arteriyasi bog'landi. Kuzatuv muddati 1 dan 90 kungacha davom etdi. Venoz qon-tomir tizim o'rganish uchun tovon vena tomir ichiga venografiya qilish va anatomik preparatlash usullari yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, birinchi hafta davomida operatsiya qilingan a'zoning barcha organlarida kichik venoz tomirlarning zich tarmog'i aniqlandi. Oldingi son venasi kengaydi va uning irmoqlari soni ko'paydi. Kichik venoz tomirlar kesilganda venalarning distal uchlarini son atrofidagi tashqi venalari, dum venasi va sonning chuqur venasining distal qismi bilan bog'landi. Teri va fassiyadagi kichik tomirlar soni ko'paydi va ularning asosiy tomirlari kengaydi. 15–30 kun o'tgach, kichik venalar soni biroz kamaydi, ayrim venalar kengaydi, ular son va quymich venalarning distal qismlarini chuqur son venasining distal qismi, quymich vena dum venasi bilan, son venasi ichki yon vena bilan, chuqur son venasining distal qismi esa son atrofidagi tashqi vena, quymich venaning proksimal qismi va ichki yon vena bilan bog'ladi. Teri va fassiya venalari kengaygan holda qoldi. Keyingi davrda (45–60 kun) kichik venalar soni kamaygan fonda, yuqorida tasvirlangan yo'nalish va topografiyaga mos keluvchi ayrim kengaygan venoz tomirlar aniqlandi. Quymich va chuqur son venalarining rezektsiya qilingan qismlari o'rtasida anastamozlar aniqlandi. Shu bilan birga, teri venalari kengaygan holda kuzatildi. 75–90 kun o'tgach, kollateral va anastamozlarning rivojlanishi kuzatildi, ularning topografiyasini quyidagicha tasvirlash mumkin: son venasining distal qismini chuqur son venasi va ichki yon vena bilan bog'laydigan aylanma yo'llar old va olib keluvchi mushaklar guruhlarida o'tadi. Shunday qilib, kamaytirilgan qon aylanishi sharoitida operatsiya qilingan a'zoning venoz yo'llarida sezilarli qayta tuzilish yuz beradi, bu mushaklar aylanma yo'llarining shakllanishi va to'g'ridan-to'g'ri anastamozlarning rivojlanishi bilan ifodalanadi. Quymich venaning distal qismi orqa va medial mushaklar guruhlarida o'tuvchi kollaterallar orqali chuqur son venasi, dum venasi va ichki yon vena bilan bog'lanadi. Chuqur son venasining

distal qismidan qon oqimi old va orqa mushaklar guruhlarida o'tuvchi tomirlar orqali amalga oshiriladi. Birinchisi uni son atrofidagi tashqi vena bilan, ikkinchisi esa quymich venaning proksimal qismi va ichki yon vena bilan bog'laydi. Bundan tashqari, quymich venaning distal va proksimal qismlarini bog'laydigan anastamoz aniqlandi.

Xulosa. Ko'rsatilgan tomirlarning rivojlanishi operatsiyadan keyin 2–3 oy davomida sodir bo'ladi. Kamaytirilgan qon aylanishi sharoitida tomir yo'llarining kompensator qayta tuzilishi, ehtimol, normal gemotsirkulyatsiyani ta'minlaydi, chunki operatsiya qilingan a'zoda hech qanday patologik hodisalar kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маматалиев А., Орипов Ф. Гистологическое строение интрамурального нервного аппарата общего желчного протока и желчного пузыря у кролика, в норме и после удаление желчного пузыря //Журнал биомедицины и практики. – 2021. – Т. 1. – №. 3/2. – С. 117-125.
2. Давлатов С. С. Зиёдулла Эркинович Хидиров, and Абдужалил Махмаюнусович Насимов." //Дифференцированный подход к лечению больных с синдромом Мириizzi." Academy. – 2017. – Т. 2. – С. 17.
3. Mamataliyev A. R. HISTOTOPOGRAPHY OF THE PROSTATE GLAND IN THE RABBIT //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 319-321.
4. Mamataliyev A. R. QUYONLARDA CHUVALCHANGSIMON OSIMTASI NERV TUZILMALARINING YOSHGA BOGLIQ MORFOLOGIK OZGARISHLARI //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 199-201.
5. Mamataliyev A. R., Sh R. S., Zohidova S. H. EKSPERIMENTAL JIGAR SIRROZI SHAROITIDA PASTKI PORTO KAVAL VENOZ TIZIMI MORFOLOGIYASINING ORGANILGANLIK DARAJASI //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-1 (119). – С. 1346-1350.

6. Маматалиев А. Р., Хусанов Э. У. Морфология интрамурального нервного аппарата гаст-рохолододоуденальной зоны после экспериментальной холецистэктомии //Морфология. – 2008. – Т. 133. – №. 2. – С. 82b-82b.
7. Narbayev, S., Minzhanova, G., Zubova, O., Toshbekov, B., Rasulovich, M. A., Sapaev, B., ... & Khudaynazarovna, T. I. (2024). Behavioral adaptations of Arctic fox, *Vulpes lagopus* in response to climate change. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(5), 1011-1019.